



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

XIZMATLAR SOHASI STATISTIKA BO'LIMI


**2023- YIL
YANVAR-NOYABR**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ -5113- son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati.	17 588,9	100,0	110,5
Shahar va tumanlar			
Qarshi shahar	4872,1	27,7	113,7
Shahrisabz shahar	895,6	5,1	111,8
G'uzor tumani	712,3	4,0	109,3
Dehqonobod tumani	555,0	3,2	109,8
Qamashi tumani	984,5	5,6	107,7
Qarshi tumani	1146,2	6,5	109,2
Koson tumani	1121,6	6,4	110,9
Kitob tumani	1238,8	7,0	108,7
Mirishkor tumani	770,1	4,4	109,4
Muborak tumani	1052,4	6,0	108,7
Nishon tumani	739,2	4,2	109,2
Kasbi tumani	768,2	4,4	108,2
Ko'kdala tumani	312,9	1,8	110,2
Chiroqchi tumani	688,6	3,9	109,8
Shahrisabz tumani	866,1	4,9	108,4
Yakkabog' tumani	865,4	4,9	110,1

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2022-2023- yillar yanvar-noyabr)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5009,7** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati.	5009,7	108,1
Qarshi shahar	16725,4	111,3
Shahrisabz shahar	6151,0	110,1
G'uzor tumani	3249,4	106,8
Dehqonobod tumani	3524,0	107,6
Qamashi tumani	3404,4	105,3
Qarshi tumani	4276,9	106,7
Koson tumani	3648,5	108,2
Kitob tumani	4451,3	106,6
Mirishkor tumani	6025,7	107,1
Muborak tumani	11389,1	106,9
Nishon tumani	4501,8	106,8
Kasbi tumani	3656,4	105,9
Ko'kdala tumani	1689,8	106,4
Chiroqchi tumani	2613,2	107,3
Shahrisabz tumani	3725,0	106,6
Yakkabog' tumani	3104,0	107,8


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-noyabr)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	17 588,9	100,0	110,5
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	863,7	4,9	122,4
Moliyaviy xizmatlar	3 174,7	18,1	119,3
Transport xizmatlari	3 652,5	20,8	105,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 479,0	19,8	104,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	567,2	3,2	110,9
Savdo xizmatlari	5 372,3	30,5	105,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	427,9	2,4	105,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	802,5	4,6	133,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	250,9	1,4	109,0
Ijara xizmatlari	376,1	2,1	100,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	590,3	3,4	104,8
Shaxsiy xizmatlar	617,5	3,5	109,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	218,9	1,3	105,6
Boshqa xizmatlar	674,4	3,8	117,3

Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)



2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi 2072,4 mlrd. so'mga oshib, 3 174,7 mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 18,1 foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 119,3 % ni tashkil etdi.


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-noyabr)

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi 90,6% ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi 45,3 foizni yoki 1438,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Mirishkor tumanida yuqori o'sish sur'ati 135,0 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **3652,5** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **105,5 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,8%** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **971** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,8 %** ini tashkil etdi. Ulardan **956** birlik (**98,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida transport ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-noyabr)



	<i>mlrd. so'mda</i>	<i>% da</i>
Qashqadaryo vil.	3 652,5	105,5
Qarshi sh.	509,9	103,7
Shahrisabz sh.	190,3	104,8
G'uzor	176,7	108,4
Dehqonobod	121,1	112,0
Qamashi	233,6	104,3
Qarshi	358,4	103,3
Koson	290,5	110,6
Kitob	268,9	111,5
Mirishkor	290,5	104,4
Muborak	287,3	91,3
Nishon	195,0	102,3
Kasbi	157,6	103,5
Ko'kdala	67,6	104,4
Chiroqchi	139,4	120,7
Shahrisabz	177,9	108,1
Yakkabog'	187,8	115,6

2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **72,2** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **509,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **103,7 %** ni tashkil etgan.


Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich **7,2** mlrd. so'mga oshib, bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **91,3 %** ni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-noyabr** oylarida savdo xizmatlari hajmi **2 668,9** mlrd. soʻmga oshib, **5 372,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **105,9** % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023- yilning 1- dekabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **30,9** % yoki **10628** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7** foizi (**10592** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **863,7** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **417** birlikka yetdi, shundan **411** birligi (umumiy sonining **98,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-noyabr, % da) 2023- y.




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Qashqadaryo viloyati.	863,7	100,0	122,4
Qarshi sh.	130,9	15,2	126,6
Shahrisabz sh.	48,6	5,6	123,9
Gʻuzor	48,0	5,6	118,7
Dehqonobod	35,8	4,1	117,4
Qamashi	60,1	7,0	117,5
Qarshi	60,8	7,0	121,5
Koson	65,7	7,6	117,0
Kitob	69,9	8,1	120,1
Mirishkor	33,1	3,8	123,5
Muborak	26,0	3,0	122,8
Nishon	39,6	4,6	129,1
Kasbi	44,2	5,1	123,5
Koʻkdala	33,2	3,8	121,8
Chiroqchi	59,3	6,9	120,6
Shahrisabz	47,3	5,5	127,4
Yakkabogʻ	61,3	7,1	125,4

2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **28,5** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **130,9** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,2 %** ni tashkil etdi.

Muborak tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **26,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-noyabr)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **802,6** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **133,7 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **66,3%** ni tashkil etdi.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasi xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-noyabr oylaridagi** ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** **2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **9** birlikni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-noyabr)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **250,9** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4** % ini tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **816** birlikni tashkil etdi, shundan **680** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)

Qashqadaryo vil.	250,9	Kitob	29,4
Qarshi sh.	130,1	Mirishkor	5,7
Shahrisabz sh.	17,8	Muborak	16,5
G'uzor	2,2	Nishon	2,6
Dehqonobod	1,4	Kasbi	3,6
Qamashi	9,5	Ko'kdala	0,9
Qarshi	3,3	Chiroqchi	2,5
Koson	3,0	Shahrisabz	15,0
		Yakkabog'	7,5

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **323,2** mlrd. so'mga oshib, **567,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1677** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1667** birligi (umumiy sonining **99,4** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-noyabr)



Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-noyabr)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **427,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-noyabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,9 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi




Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **218,9** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)

Qarshi sh	136,2	Kitob	10,0
Shahrisabz sh	21,6	Muborak	0,1
G'uzor	3,0	Nishon	2,2
Qamashi	10,5	Kasbi	1,1
Qarshi	8,9	Chiroqchi	4,7
Koson	11,8	Shahrisabz	5,6
		Yakkabog'	3,4

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


(2019-2023-yillar yanvar-noyabr)



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 590,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 %ni tashkil etgan.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-noyabr)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-noyabr)

2019- yilning yanvar-noyabrga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **155,2** mlrd. so'mga oshib, **376,1** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-noyabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **81,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

